



QASHQADARYO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

QASHQADARYO
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2023- *yil*
yanvar- dekabr



QASHQADARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Qashqadaryo viloyatida 2024- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **3 560,6** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **78,3** ming kishiga yoki **2,2 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1524,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **42,8 %**), qishloq aholisi soni **2036,4** ming kishi (**57,2 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3 560,6^{ming}_{kishi}

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- yanvar holatiga

Shahar




42,8%

Qishloq



57,2%


Erkaklar




50,7 %

1 804,2 ming kishi

Ayollar



1756,4 ming kishi




Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

I- yanvar holatiga, ming kishi



2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyat doimiy aholisi sonining **34,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **55,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **10,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- yanvar holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Qashqadaryo viloyat	3 482,3	3 560,6	102,2
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	288,9	295,6	102,3
Shahrisabz sh	144,8	147,2	101,7
G'uzor	217,3	222,2	102,3
Dehqonobod	156,3	159,5	102,0
Qamashi	286,7	293,1	102,2
Qarshi	265,6	272,1	102,4
Koson	304,7	312,1	102,4
Kitob	276,3	282	102,1
Mirishkor	126,8	129,6	102,2
Muborak	91,9	93,4	101,6
Nishon	162,7	166,6	102,4
Kasbi	208,4	213	102,2
Ko'kdala	183,3	188,7	102,9
Chiroqchi	260,7	267,9	102,8
Shahrisabz	231,2	235,1	101,7
Yakkabog'	276,7	282,5	102,1

Tug'ilganlar soni

Ma'lumot uchun!: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bola:

49,0 ming kishi




O'g'il bola:

52,9 ming kishi

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **101,9** mingta tug'ilganlar qayd etilgan bo'lib, shundan o'g'il bolalar **51,9 %** ni, qiz bolalar **48,1 %** ni tashkil etadi.

Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr



2023- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafr va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:


- 1 nafr – **97,9%**
- 2 nafar – **2,1%**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,0%**

Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

I- yanvar holatiga, kishi

	2023- yil	2024- yil	O’sish sur’ati, % da
Qashqadaryo viloyat	98279	101852	103,6
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	7724	7708	99,8
Shahrisabz sh	3282	3386	103,2
G‘uzor	6284	6452	102,7
Dehqonobod	4643	4915	105,9
Qamashi	8409	8739	103,9
Qarshi	7137	7739	108,4
Koson	8814	9305	105,6
Kitob	7307	7638	104,5
Mirishkor	3503	3737	106,7
Muborak	2168	2357	108,7
Nishon	4595	5006	108,9
Kasbi	5943	6085	102,4
Ko‘kdala	-	6115	-
Chiroqchi	14807	8868	59,9
Shahrisabz	5627	5791	102,9
Yakkabog‘	8036	8011	99,7

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **101,9** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **28,9** promilleni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan plus **0,4** promillega ko‘paygan (2022- yilning yanvar- dekabr oylarida **28,5** promille bo‘lgan).




VAFOT ETGANLAR

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **16,4** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan minus **0,2** promillega kamaygan (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,9** promille).


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr, kishi




2023- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **59,9 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,7 %** i – o’simtalardan, **5,8 %** i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **5,0 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,9 %** i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **0,7 %** i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **15,9 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 30908 ta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **8,8** promille tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **9,3** promille bo‘lgan).


NIKOHDAN AJRALISHLAR



2023- yil yanvar-dekabr oylarida **3,4** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,0** promille tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan kamayganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-dekabr oylarida **1,0** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr



2023- yil yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **53,3** % i farzandsiz, **24,1** % i bitta farzand bilan va **22,6** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2023- yil yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **9150** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami **16263** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi - **7113** kishini tashkil etadi. 2022- yilning mos davrida -**7289** kishi bo'lgan.

Qashqadaryo viloyat bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr, (kishi)




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **9,2** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **2,6** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan - **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **2,7** promille bo'lgan).

Qashqadaryo viloyat bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr, (kishi)

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **16,3** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyent **4,6** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **-0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,8** promille bo'lgan).



Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlар va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.



Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarni qayta ishslash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarni qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migrations o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 75 221-15-84, 70-70